

TALABALARNING OG'ZAKI TARJIMA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR

Matkarimov S.X

O'zDJTU o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada og'zaki tarjima va unga o'rgatish masalalari yoritilgan. Tarjimashunoslikning ushbu yo'nalishiga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganiga qaramay, og'zaki tarjima mavzusining yetarlicha o'rganilmayotgani ta'kidlanadi. Muallif og'zaki tarjimaning ikki turi — ketma-ket va sinxron tarjimalar haqida so'z yuritadi hamda Seleskovich tomonidan ilgari surilgan ketma-ket tarjimaga o'rgatishning to'rt bosqichi: tinglash, tahlil qilish, xotirada saqlash va qayta tiklash jarayonlarini tahlil qiladi. Shuningdek, talabalarda tinglab tushunish va tillararo og'zaki translyasiya qilish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: og'zaki tarjima, ketma-ket tarjima, sinxron tarjima, tinglab tushunish, tarjimashunoslik, til ko'nikmalari, o'qitish metodikasi.

Mamlakatlar o'rtasidagi turli aloqalarning rivojlanib borishi tarjimaga, xususan og'zaki tarjimaga bo'lgan zaruriyatni yanada kuchaytiradi. Quyida biz aynan og'zaki tarjima, talabalarni unga o'rgatish bilan bog'liq ayrim masalalarni ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Keyingi yillarda tarjimashunoslik masalalariga bag'ishlangan maqolalarning salmog'i ancha ortdi. Biroq, nazarimizda uning eng muhim yo'nalishlaridan bo'lgan og'zaki tarjima masalalari bir oz chetda qolayotgandek.

Adabiyotlarda og'zaki tarjimaning ikki asosiy turi farqlanadi. Bular: ketma-ket va sinxron tarjima [1;19]. Seleskovich o'zining asarida ketma-ket tarjimaga o'rgatishda to'rt asosiy element mavjudligini ta'kidlaydi. Ular quyidagilardan iborat: tinglash, eshitilgan axborotni tahlil qilish, axborotni xotirada saqlash, axborotni chet tilida qayta tiklash [1; 2-43].

Tinglab tushunishga o'rgatishda o'qituvchining asosiy vazifasi talabalar diqqatini gaplar vositasida taqdim etilayotgan axborotlardagi alohida so'zlarga emas, balki ulardagi ma'noga qaratishdan iborat bo'lishi lozim. Ana shundagina talabalarda tillararo og'zaki translyasiya qilish malakasi shakllanib boradi. Albatta, og'zaki tarjimaga o'rgatishning dastlabki bosqichidanoq talabalardan bu narsani talab qilish to'g'ri bo'lmas edi.

Ye.S. Voysexovskaya og'zaki tarjimaga o'rgatishni ikki bosqichga bo'lishni taklif etadi [2; 290].

Birinchi bosqich tayyorlov bosqichi bo'lib, unda talabalar tarjima tillarini chuqur o'rganadilar. Chet tili va ona tilida turli mavzularda nutq so'zlashni, intervyular berish va olishni mashq qiladilar. Bu bosqichda tinglab tushunish mashqlariga alohida e'tibor qaratiladi. Talabalar uncha qiyin bo'lmagan yozma va og'zaki matnlarni chet tilidan ona tiliga tarjima qilishni boshlaydilar. Og'zaki tarjimaga o'rgatishning ikkinchi bosqichi kompleks xarakterga ega bo'lib, undan xotirani mustahkamlash mashqlari, bir tildan ikkinchi tilga o'tish mashqlari, leksik birliklar bilan ishlash, transformatsiya mashqlari kabilar o'rin oladi.

N.V. Gorbova Ye.S. Voysexovskayaning fikrini ma'qullaydi va boshlang'ich bosqichda tarjimaga o'rgatishni ona tilidagi matnni bir marta eshitib uni gapirib berishdan boshlash fikrini ilgari suradi [3; 2]. Bunda o'qituvchi talabalar tomonidan matnning asosiy mazmunini uning mantiqiy uzviyligini saqlagan xolda va bir xil sintaktik konstruksiyalar va so'zlarni ishlatmasdan so'zlab berishlarini nazorat qilishi lozim.

Talabalarning tinglab tushunish qobiliyatini o'stirib borishga qaratilgan turli mashqlar mavjud. Masalan, saralab tinglash mashqida o'qituvchi talabalardan tinglanayotgan axborotning qisqa mazmunini qayta tiklashni so'rashi yoki axborot ichidagi mavzuga oid so'zlar, sonlar, atoqli otlar kabilarni so'rashi mumkin. Bunday mashqda tinglanayotgan axborotning to'liq tafsilotini qayta tiklash shart qilib qo'yilmaydi.

Og'zaki tarjimaga o'rgatishning dastlabki bosqichida talabalar notiq nutqining asosiy mazmunini tushunishga qiyinaladilar. Bunga bir necha faktorlar sabab bo'ladi. Ular orasida eng ko'p uchraydiganlari bu notiqning shevada gapirishi, uning nutqida uchraydigan parazit elementlar (masalan, har ikki-uch so'zdan keyin n'est-ce pas, euh, euh kabi so'zlarni qo'llash). Bu narsa tinglab tushunish mashqlarini bajarish davomida sekin-asta yo'qotib boriladi.

Og'zaki tarjimada umumiy ma'noga putur yetkazmagan xolda axborotni ixchamlashtirish masalasi o'ta muhim hisoblanadi. Talabalarda bunday malakani shakllantirish maqsadida ular bilan o'rganilayotgan chet tili va ona tilida gaplarni transformatsiya qilish mashqlarini bajarish yaxshigina samara beradi. "Xalq so'zi" gazetasining 2015 yil 2 noyabr sonidan olingan quyidagi gapni ko'rib chiqamiz:

Ayni chog'da turli davr va sivilizatsiyaga oid to'rt mingdan ortiq me'morlik hamda san'at yodgorliklarimizdan 140 tasi YUNESKOning muhofazaga olingan tarixiy ob'yektlar ro'yxatiga kiritildi. (23 ta so'z)

Bu gap 23 ta so'zdan iborat. Gapni og'zaki tarjima qilish uchun uni biroz ixchamlashtirish mumkin:

Bugungi kunda tariximizga oid 4000 dan ortiq me'morchilik va san'at yodgorliklaridan 140 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. (16 ta so'z)

Bu yerda 23 ta so'zdan iborat gap ma'noga deyarli putur yetkazmagan xolda 16 taga tushirildi. Tabiiyki, uni og'zaki tarjima qilish birinchisiga qaraganda ancha yengil kechadi. Mashqni davom ettirib gapni yanada ixcham ko'rinishga keltirish mumkin:

Xalqimizning turli yodgorliklari soni 4000 dan oshadi va ularning 140 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. (14 ta so'z)

Ma'lumki, o'zbek tili badiiy vositalarga boy bo'lgan tillar qatoriga kiradi. Shunday vositalar ba'zida muzokara ishtirokchilari tomonidan qo'llanishi mumkin. Og'zaki tarjimon esa bunday vosita o'rniga uning so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan ekvivalentini tez topa olishi lozim. Masalan: O'zbekiston – Turkmaniston: Vaqt sinovidan o'tgan do'stlik va hamkorlikning yangi ufoqlari degan gapdagi ufoqlari so'zi imkoniyatlari so'zi bilan almashtirilsa uning chet tilidagi ekvivalenti osonlik bilan topiladi (fransuz tilida possibilité).

So'z va birikmalarning sinonimlari nutq boyligini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Ularni bilish esa og'zaki tarjimada muhim hisoblanadi. Shuning uchun transformatsiya mashqlari qatoriga so'z va birikmalarning o'rniga sinonimni topish mashqlari ham ancha foydalidir. Masalan, fransuz tilidagi *Ministre des affaires étrangères* birikmasi *Chef de la diplomatie française*, *Chef du Quai d'Orsay* kabi sinonimlariga ega. Ularni o'zbek tiliga "Tashqi ishlar vaziri" yoki "Tashqi ishlar mahkamasi rahbari" deb tarjima qilish to'g'ri bo'ladi.

Og'zaki tarjimaga o'rgatishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlardan yana biri bu axborotni eshitish jarayonida undagi narsa va hodisalarni vizuallashtirishga, ya'ni ko'z oldidan o'tkazishga o'rgatishdir. Bunda talabaning ekstralingvistik bilimlari qanchalik keng bo'lsa, uning imkoniyatlari ham shunchalik keng bo'ladi. Masalan, so'z Fransiya prezidenti to'g'risida ketayotgan bo'lsa, talaba uning qiyofasini ko'z oldidan o'tkazishi kerak. Huddi shuningdek, "bir barrel neft bahosi" degan jumlada talaba ko'z oldidan bochka yoki avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchasini o'tkazishi kerak. Vizualashtirish talabaga tarjima jarayonida axborotni qayta tiklashga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, talabalarni og'zaki tarjimaga o'rgatish samaradorligini oshirish bir necha omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida biz yuqorida tilga olgan tarjima va transformatsiya mashqlari ham muhim o'rinni egallaydi. Ulardan tarjima darslarida unumli foydalanish talabalarning xotirasini kuchaytirish, tarjima tilida gaplarni grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri tuzish va umuman og'zaki tarjima malakalarini o'stirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Seleskovitch D., Lederer M. *Pédagogie raisonnée de l'interprétation*. – Paris : Didier Érudition, 2002. – 360 p.
2. Voysexovskaya Ye.S. *Типы упражнений при обучении устному переводу на начальном - среднем этапах (на материале английского языка) // Лингводидактические аспекты перевода в процессе подготовки переводчиков: материалы Междунar. науч.-практ. семинара. Irkutsk, 2006. –S. 289-296.*
3. Gorbova N.V. *O texnikax i metodikax obucheniya uстному переводу. <http://fpkp.su/conf/>*